

XIX ASR IKKINCHI YARMI - XX ASR BOSHLARIDA SHARQIY BUXORO

Alimova Raxima Ruskulovna

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti,

Toshkent, O'zbekiston

alimovaraxima@gmail.com,

<https://orcid.org/0009-0009-9434-9601>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada XIX asr ikkinchi yarmi - XX asr boshlarida Buxoro amirligining tarkibiy qismi bo'lgan Sharqiy Buxoroning tuzilishi, tarkibiy bo'linmalari, boshqaruv tizimi masalalari ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: Sharqiy Buxoro, viloyat, beklik, amlokdorlik, qozikalon, yasovulboshi, mirza, rais.

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматриваются вопросы формирования, структурного устройства, административно-территориального деления и системы управления Восточной Бухары, входившей в состав Бухарского эмирата во второй половине XIX – начале XX веков.

Ключевые слова: Восточная Бухара, область, бекство, амлякдарство, казы-калон, ясовулбаши, мирза, раис.

ABSTRACT

This article examines the formation, structural organization, administrative divisions, and governance system of Eastern Bukhara, which was an integral part of the Bukhara Emirate in the second half of the nineteenth and early twentieth centuries.

Keywords: Eastern Bukhara, province, bekdome, amlokdarlik, qozikalon, yasovulboshi, mirza, rais.

KIRISH

Buxoro amirligida mang'it hukmdorlaridan amir Nasrullo (1826-1860) davlat hokimiyatini mustahkamlash maqsadida urug' va qavm boshliqlari bo'lgan ko'plab amaldorlarni quyi tabaqalardan chiqqan yosh va g'ayratli kishilar bilan almashtirdi. Uning tomonidan olib borilgan harbiy siyosiy islohotlar natijasida davlatning harbiy qudrati mustahkamlana bordi¹. Amir Nasrullo hukmronlik qilgan yillar Turkiston

¹ To'raev H. Buxoro tarixi. O'quv qo'llanma. – Buxoro. "Durdona", 2020. – C. 187.

mintaqasida Rossiya-Angliya manfaatlari oʻzaro toʻqnashgan davr hisoblanadi. Amir Buxoro davlatida qatʼiy markazlashtirish siyosatini olib bordi. U Qoʻqon tomonidan bosib olingan Xoʻjand, Oʻratepa, Toshkent, Jizzax va Zominni amirlikka qaytardi. Amir Nasrullodan soʻng amirlik taxtiga vorisi Muzaffar (1860-1885) oʻtirdi. Amir Muzaffarning hukmronlik davri Rossiyaning Oʻrta Osiyo xonliklariga qarshi harbiy harakatlarni kuchaytgan davrga toʻgʻri keladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

XIX asrning oʻrtalarida Rossiya imperiyasi Oʻrta Osiyo xonliklariga qarshi harbiy harakatlarini boshlaydi va bosib olingan yerlar hisobiga 1867–yilda Turkiston general-gubernatorligi tashkil qilinadi. 1866-1868–yillarda Buxoro amirligi hududning katta qismidan ajraladi. Jizzaxdan Kattaqoʻrgʻonga qadar boʻlgan hududlar Rossiya tobeligiga oʻtadi. Rossiya-Buxoro oʻrtasidagi janglarda zabt etilgan hududlar hisobiga Turkiston general-gubernatorligining Samarqand viloyati tashkil etiladi.

Amir Muzaffardan soʻng taxtga uning vorisi amir Abdulahad (1885-1910) oʻtirdi. 1885–yilda Buxoroda rasman Rossiya imperatorining siyosiy agentligi tashkil etiladi. Bu agentlik zimmasiga siyosiy, iqtisodiy, harbiy masalalar yuzasidan amir hukumati bilan munosabatda boʻlish, amir va uning vazirlari ustidan nazorat oʻrnatish, hududning suv taqsimotini nazorat qilish, Buxoro-Afgʻoniston chegaralarini kuzatib turish kabi huquqlar berilgan. Siyosiy agent Rossiya hukumatining Buxorodagi doimiy vakili boʻlib, Peterburg va Toshkentning Buxoro hukumati bilan aloqalarini shu agent orqali amalga oshirgan.

Amir Abdulahaddan soʻng taxtga oʻgʻli Said Olimxon (1910-1920) oʻtirdi. U turli hissadorlik jamiyatlari, banklar, sanoat va ishlab chiqarish korxonalari tashkil etilgan boʻlishi barobarida, amirlikning Rossiyaga qaramligi yanada kuchaygan. Oxir oqibat 1920–yil kuzida Frunze boshchiligidagi rus qoʻshinlari tomonidan ham osmondan, ham yerdan qilingan hujumlar natijasida amirlik egallandi. Buxorodan soʻng amirlik tarkibidagi 27 beklik ham egallanib, Buxoro amirligiga barham berildi. Uning hududida Buxoro Xalq Sovet Respublikasi tuzildi.

Buxoro amirligi tarkibida yashagan tojik xalqi barcha siyosiy oʻzgarishlarni boshidan kechirdi. Xususan, 1895–yilda tuzilgan rus-ingliz kelishuvi asosida Buxoro amirligining Afgʻoniston bilan chegarasi Badaxshondagi Panj daryosi boʻylab belgilandi. Hozirgi Tojikiston hududining janubi-sharqiy va markaziy qismlari — Sharqiy Buxoro va Gʻarbiy Pomir — Buxoro amirligi tarkibida qolgan boʻlsa, Badaxshondagi Darvozning chap sohil qismi, shuningdek Vaxon, Ishkoshim, Shugʻnon va Rushonning chap sohil hududlari Afgʻoniston tarkibiga oʻtdi.

XIX asr ikkinchi yarmida Buxoro amirligi bekliklar yoki viloyatlarga bo'lingan bo'lib, ularni amir tomonidan tayinlanadigan beklar idora qilgan. XIX asrning 70-yillari – XX asr boshlarida Buxoro amirligida bo'lgan, harbiy topograflar, ofitserlar, savdogarlar va sayyohlar - S.S.Andreyev, N.A.Benderskiy, M.A.Varigin, Vasilev, A.Galkin, A.N.Bikov, V.V.Krestovskiy, D.N.Logofet, Liliyental, N.A.Mayev, V.I.Masalskiy, Matveyev, S.Mazov, V.P.Nalivkin, A.V.Nechayev, R.B.Rojevits, A.A.Semenov, A.E.Snesarev va b.larni amirlikning siyosiy, iqtisodiy-ijtimoiy va madaniy hayotiga taalluqli ma'lumotlarni to'plashgan. Amirlik hududining chegaralari, topografiyasi va toponimikasiga oid ma'lumotlar chuqur tahlil qilingan. Shu bilan birga amirlikning ma'muriy boshqaruv tizimi ham sinchkovlik bilan o'rganilgan.

D.N.Logofet Buxoro amirligi hududining chegaralari shimolda Samarqand viloyati va Amudaryo bo'limi, g'arbda Zakaspiy viloyati, sharqda Pomir va Farg'ona viloyati, janubdan Amudaryo bilan orqali o'tganligini ma'lum qilgan². Mang'itlar hukmronligi davrida Buxoro amirligida davlat boshqaruvi asosan markaziy va mahalliy boshqaruvdan iborat bo'lgan. Amirlik davrida davlat boshqaruvida qushbegi mansabining mavqei baland bo'lgan. Qushbegi ma'muriy, moliyaviy, sud va diniy sohalarni nazorat qilgan. U amirlikning ichki ishlarini boshqargan, amir yo'qligida mamlakatning idora ishlariga mas'ul bo'lgan. Bundan tashqari ikkinchi Qushbegi ham bo'lib, u xonlikning tashqi ishlarini yuritgan va Peterburg bilan munosabatlarda elchi vazifasini bajargan³. Mahalliy boshqaruv viloyat beklari qo'lida bo'lgan.

Bu davrda Buxoro ma'muriy jihatdan bekliklarga bo'linib, ularni beklar to'qsobo, dodxoh, inoq va otaliq kabi a'yonlari yordamida idora qilgan⁴. Qushbegiga barcha mahalliy beklar itoat qilgan. Bek – fuqarolik va harbiy mansab hisoblanib, Rossiyadagi gubernatorga to'g'ri kelishiga ishora qiladi. XIX asrning birinchi yarmida Buxoro amirligi 30 ta beklikka bo'lingan bo'lsa, XX asrning boshlarida quyidagi 25 ta beklik mavjudligi e'tirof qilingan: Chorjo'y, Qabaqli, Nurota, Karmana, Ziyovuddin, Xatirchi, Zirabuloq, Shahrisabz, Kitob, Yakkabog', G'uzor, Qarshi, Chiroqchi, Boysun, Sherobod, Kerki, Denov, Xisor, Baljuvon, Kobadiyon, Qo'rg'ontepa, Ko'lob, Qorategin, Darvoz. Bekliklarning 5 taga qisqarishi, amirlik hududining ma'lum qismi Turkiston general-gubernatorligi boshqaruv tasarrufiga o'tganligi bilan bog'liq. Shulardan Hisor, Qo'rg'ontepa, Qabadiyon, Ko'lob, Baljuvon, Qorategin va Darvoz Sharqiy Buxoro bekliklari hisoblangan. Rossiyalik tadqiqotchilar Sharqiy Buxoro bo'ylab o'tkazgan ekspeditsiyalari natijasida

² Логофет Д.Н. На границах Средней Азии. Путевые очерки в 3-х книгах. Книга III. Бухарско-Афганская граница. – С.-Петербург, 1909. – С. 64.

³ Логофет Д.Н. Страна бесправия. Бухарское ханство и его современное состояние. С.-Петербург, 1909. – С. 31.

⁴ Логофет Д.Н. На границах Средней Азии. – С. 65.

bekliklarning ma'muriy hududiy bo'linishiga, uning tabiiy boshliklari, an'anaviy xo'jalik hayoti doir ma'lumotlarni yozib qoldirgan⁵. Bekning hokimiyati beklikning Buxorodan qanchalik uzoqda joylashganiga bog'liq bo'lgan. Shu bilan birgalikda Buxoroga yaqin joylashgan beklik tomonidan amirga har haftada, Buxorodan uzoqda joylashgan bekliklar beklari oyda bir marta arz (yozma hisobot) yozib turgan. Arzda beklikda sodir bo'lgan voqea, hodisalar to'g'risida xabar qilingan. Ma'lumki, viloyat beklari amir tomonidan tayinlangan bo'lib, bu mansabga ko'p hollarda mang'it urug'idan bo'lgan kishilar qo'yilgan. Beklar amirning ishongan vakillari bo'lib, uning nomidan beklikni idora qilgan, o'lpon va soliqlarni xazinaga to'lab turgan. Beklikdan xazinaga jo'natiladigan o'lponning miqdori beklikning iqtisodiy holati va uning farovonligiga bog'liq bo'lgan. O'lpon natura bilan to'langan⁶.

Bekliklar o'z navbatida kichik hududiy bo'linma - amlokдорliklarga bo'lingan. Amlokдорliklarni boshqargan shaxs amlokдор deyilgan, uning qudrati u'ezd boshlig'i mansabiga to'g'ri kelgan. Beklikning katta-kichikligiga qarab, uning tarkibida 3 tadan 20 tagacha amlokдорliklar bo'lgan. Har bir qishloq jamoasi oqsoqol tomonidan boshqarilgan. Bir nechta qishloqlarni mingboshi boshqargan. Amirlikdagi ko'chmanchi aholi Ilbegi lavozimidagi shaxs tomonidan boshqarilgan. Diniy ishlar kalon tomonidan boshqarilgan bo'lib, u shariat qonun-qoidalarining ijrosi, madrasalar, maktab va machitlar faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirgan⁷. Beklikda rais kabi diniy mansab ham bo'lib, unga amlokдорliklardagi raislar bo'ysungan. Hamma raislar bosh raisga bo'ysungan. Bosh rais o'z navbatida Qozi kalonga itoat qilgan.

Amirlikda bosh zakotchi lavozimi bo'lib, moliyaviy ishlar uning nazoratida bo'lgan. Har bir beklik va amlokдорliklarda zakotchilar bo'lib, ular aholidan soliq yig'ib olgan. Bekliklardagi zakotchilar mustaqil bo'lib, beklar va amlokдорlarga bo'ysunmagan. Har bir beklikning qozisi Qozi kalonga itoat qilgan.

Sharqiy Buxoroning ayrim bekliklari doimo Buxoro amirligi tarkibidan mustaqil bo'lib olish uchun kurashib kelgan. XIX asr 70-yillaridan Sharqiy Buxoro bekliklarining amirlikka butunlay qo'shib olinishi natijasida, ular Buxoro amirligining ma'muriy-boshqaruv tizimiga o'tkazilgan.

D.N.Logofet beklikdagi amaldorlar, ularning mansablari ro'yxatini, ya'ni bekning yordamchisi, bekdan keyingi ikkinchi kishi bo'lgan yasovulboshidan tortib, to navkarlargacha o'zida aks ettirgan mansablar jadvalini tuzgan. Asarda ko'rsatilgan amaldorlar va ularning qo'l ostidagi mansablar juda ko'p bo'lib, kuzatib yuruvchi mulozimlarning o'zi 50 tadan 200 kishigacha yetgan, xat-xabarlarni yetkazuvchi navkarlar va qo'riqchilar 200-300 kishini tashkil etgan. Masalan, Darvoz bekligida 5

⁵ Логофет Д.Н. На границах Средней Азии. – С. 62, 87.

⁶ Логофет Д.Н. На границах Средней Азии. – С. 66.

⁷ Логофет Д.Н. Страна бесправия. – С. 32.

ta biy, 5 ta eshikog‘aboshi, 3 ta to‘qsabo, cheksiz miroxurlar, qoravulbegi, jevachi, mirzaboshi, navkarlar va boshqa mansab egalari bo‘lgan⁸. Ko‘lob bekligi bek saroyida yasovulboshi, uning o‘ng qo‘li, yordamchisi, devonbegi, xo‘jalik boshlig‘i, 2 kotib, bir nechta miroxurlar, qoravulbegi, jevachi va boshqa mansablar bo‘lgan⁹. Hisor bekligida 2 yasovulboshi, 7 mirzo, 85 nafar katta amaldorlar, arizachilar va 25 kichik yasovullar, 6 ta dala to‘piga ega 50 nafar piyoda sarbozlardan tashkil topgan shaxsiy qo‘shin bo‘lgan. Faqat amaldorlar va qo‘shin maoshi uchun umumiy chiqim 700 rublga yetgan¹⁰.

Amlokdorlar oqsoqollar, amirlar, arboblari, dorug‘alar va boshqalar orqali davlat soliqlarini to‘plagan. Har bir amlokdorning 100 nafardan 200 nafargacha navkarlari bo‘lgan. Shu davrda beklilik aholisi quyidagi ijtimoiy toifalarga bo‘lingan, bular: katta lavozimlarni egallab turgan yer mulk egalari va ularning yerlarida ishlovchi qaram aholi, hamda ikkala tabaqaga ham kirmaydigan – navkarlar, madrasa toliblari, mirzolar va boshqa ma‘muriy lavozim egalari. Navkarlar qisman soliq va majburiyatlardan ozod qilingan.

Eng katta mansablarga katta yer egalari, shu bilan birga nufuzi baland urug‘ vakillari ta‘yinlangan.

Bekliklarda sud hokimiyati amir tomonidan tayinlangan bosh qozi qo‘lida to‘plangan. Qozilar ijtimoiy kelib chiqishiga ko‘ra, dindorlar tabaqasiga mansub bo‘lishgan.

Beklikda eng katta mansablardan biri - qozikalon deb atalgan. Qozi amir tomonidan tayinlangan va to‘g‘ridan-to‘g‘ri unga hisobot bergan. Qozi nizolarni ko‘rib chiqadigan yuridik tashkilot vakolatiga ega bo‘lib, bir vaqtning o‘zida u hakam, natarius, politsiya xizmatini ham o‘tagan, shu bilan birga hatto bek va boshqa mansab egalarining faoliyati to‘g‘risida amirga ma‘lumot yetkazib turgan. Bu davrda apellyatsiya va kassatsiya sudlari bo‘lmagan. Har bir amlokdorlikda qozining o‘rinbosari bo‘lib, u “noibi qozi” deb yuritilgan. Ular qozi kalon rahbarligida o‘z vazifalarini ado etishgan.

Qozining qo‘l ostida bir nechta kishilar ishlagan, bular mulozimlar va mirzolar (kotib) bo‘lgan.

Beklikda yasovulboshi lavozimi bo‘lib, bekning xabarchisi, yoki bekning politsiyachisi, bekning farmonlarini yetkazuvchisi hisoblangan. Yasovulboshi tergov jarayonida qatnashadi, da‘vogarlariga bekning qarorini yetkazadi, unga ertalab tunda sodir bo‘lgan voqealar to‘g‘risida, kechqurun esa kunduzgi hodisalar haqida xabar

⁸ Кап.Кузнецов. Дарваз. – Новый Маргелан. 1893. – С.69.

⁹ Варыгин М.А. Опыт описания Кулябского бекства. Известия РГО, Т. 52.вып. 10.1916. – С. 796.

¹⁰ Бендерский Н.А. Гиссарское бекство. – ТВ. 1905. № 42.– С. 156.

yetkazib turgan¹¹. Har bir beklikda yana bir necha turli topshiriqlarni bajaruvchi amaldorlar, bir necha kotiblar, hovli cho'rilari xizmat qilgan. Bek va hamma amaldorlar aholidan yig'iladigan soliqlar va tanho mulkidan keladigan daromad hisobiga kun kechirgan.

Amlokdorlikda mirzalar (ish yurituvchilar) ham bo'lgan, mirzalar soni ishning hajmiga va amlokdorning o'ziga bog'liq bo'lgan. Amlokdorning yordamchisi va uning ko'rsatmalarini bajaruvchi kishi yasovulboshi hisoblangan. Amlokdorning qo'l ostida bundan tashqari uning topshiriqlarini bajaruvchi maxsus kishilar ham bo'lib, ular dorug'a deb atalgan. Ular dehqon dalalaridagi hosilning pishishini, donni yanchish jarayonini kuzatib yurgan, hosilning miqdorini aniqlamasdan avval donni xirmondan olib ketib qolmasligini nazorat qilib turgan, chunki hosilning solig'i xirmonda belgilanar edi.

Bundan tashqari amlokdor qo'l ostida yasovulboshi va uning navkarlari, kirim-chiqimni nazorat qiluvchi, asosan soliqlar hisobini yurituvchi devonbegi xizmat qilgan. Mirob mansabi ham bo'lib, u irrigatsiya tizimlari va suv taqsimoti bilan shug'ullangan.

Beklikda diniy lavozimlardan biri rais deyilgan. U bozordagi tartibni nazorat qilib turgan. Har bir beklikning muftisi bo'lib, u shariat qonun-qoidalari asosida fatvo chiqarib beklik ishlarining huquqiy jihatini ta'minlab turgan.

Amlokdorliklarga oqsoqollar boshchilik qiluvchi qishloqlar kirgan. Oqsoqollikka asosan amlokdor tomonidan ko'rsatilgan shaxs saylangan. Ko'chmanchilar yashaydigan joylarda bek oqsoqollarni tayinlagan. Ular elbegi deb atalgan.

Sharqiy Buxoro bekliklari orasida Hisor bekligi nufuzi jihatidan boshqalardan ustun turgan. Amir Muzaffar 1870-yilda Hisorni Boysun, Sherobod, Denov, Yurchin, Hisor, Qabadiyon va Qo'rg'ontepa kabi yettita beklikka bo'lgan. Bekliklarning hammasida Buxoro amirligi tartiblari majburiy hisoblangan. Hisor bekliklari va Sharqiy Buxoro Hisor qushbegisiga bo'ysundirilgan. Hisor bekligi mahalliy hukmdori Buxoro amirining noibi hisoblangan.

Ko'lob viloyati Buxoro amiriga butunlay buysundirilgandan so'ng, u ikki – Ko'lob va Baljuvon bekliklariga bo'lingan. Beklar beklikdagi eng oliy mansab egalari hisoblangan. Ko'lob bekligi bir nechta amlokdorliklarga - Mo'minobod, Ko'l, Sari-Chashma, Qo'bray, Sayot, Girdiqo'rg'oni-Bolo va Girdiqo'rg'oni-Poyon; Davlatobod, Tagnov, Kishti-Darai-Poyon, Darai-Bolo, Rogi, Sarig'or, Vori, Duob kabi amlokliklarga bo'lingan¹². Baljuvon bekligi bir-biridan tubdan farq qiluvchi ikki

¹¹ Гаевский П. Курган-Тюбинское бекство. ИРГО. 1919-1923 гг., Т. 55. Вып. 2. – М.-Л. 1924. – С. 59.

¹² Варыгин М.А. Опыт описания Кулябского бекства. Известия РГО, Т. 52. вып. 10. 1916. – С. 771.

qismga bo'lingan. Baljuvonning shimoli-sharqiy qismi tog'li hudud, janubi-g'arbiy hududi esa cho'ldan iborat bo'lgan. Beklikda Baljuvon, Dashtak hamda Kadiobodi-Surxob amlokdorliklari mavjud edi.

Boshqa ma'muriy markaz Qo'rg'ontepa bekligi hisoblangan. Qo'rg'ontepa bekligiga uchta amlokdorlikka bo'lingan, bular: Qo'rg'ontepa, Saroy va Jiliko'l. Ularni bek tomonidan tayinlangan amlokdorlar idora qilgan.

Amlokdorlarga qishloq oqsoqollari, mingboshi, jevachidan tortib to qorovulbegi yoki miroxurgacha hamma mansab egalari itoat qilgan¹³.

XIX asr oxirgi choragi va XX asr boshlarida Qabadiyon bekligining hududi unchalik katta bo'lmagan, aholisi ham ko'p emas edi. Bu yerda qozi bir vaqtning o'zida rais ham edi. Qabadiyon bekligi uchta amlokdorlikga – Qabadiyon, Boshkent (Beshkent) va Bobotog' ga bo'lingan¹⁴. Qabadiyonda miraxur, qorovulbegi, mirzoboshi, chuxro-oqasi kabi mansablar va 60 ta navkarlar borligi tilga olingan.

XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Sharqiy Buxoro Buxoro amirligi tarkibidagi oddiy chekka hudud emas, balki harbiy-siyosiy, ma'muriy va geostrategik ahamiyatga ega bo'lgan mintqa sifatida shakllangan. Mazkur davrda Sharqiy Buxoro beklklarining amirlik boshqaruv tizimiga to'liq integratsiya qilinishi markazlashtirish siyosatining kuchayganidan dalolat beradi. Beklar, amlokdorlar va diniy-sud mansabdorlar orqali olib borilgan boshqaruv shakli amir hokimiyatining joylardagi tayanchi bo'lib xizmat qilgan hamda soliqlar yig'imi, harbiy safarbarlik va ijtimoiy nazoratni ta'minlagan.

Rossiya imperiyasining O'rta Osiyodagi ekspansiyasi sharoitida Sharqiy Buxoro hududi, ayniqsa, Afg'oniston bilan tutash chegara mintqa sifatida strategik ahamiyat kasb etgan. Shu bois mazkur hudud Rossiya harbiylari, siyosiy agentlari va tadqiqotchilarining doimiy e'tibor markazida bo'lgan. Ular tomonidan qoldirilgan harbiy-topografik, ma'muriy va etnografik ma'lumotlar Sharqiy Buxorodagi beklklarning hududiy tuzilishi, boshqaruv mexanizmlari va ijtimoiy-iqtisodiy hayotini o'rganishda muhim manbaviy asos vazifasini bajaradi.

Shuningdek, Sharqiy Buxoro beklklarida markaziy hokimiyat bilan mahalliy an'anaviy tuzilmalar o'rtasidagi munosabatlar murakkab va ko'p qirrali bo'lib, ayrim beklklarning mustaqillikka intilishi, ularning amirlik tomonidan bosqichma-bosqich bo'ysundirilishi orqali bartaraf etilgan. Natijada Sharqiy Buxoro Buxoro amirligining siyosiy barqarorligi va hududiy yaxlitligini ta'minlashda muhim omilga aylangan.

Umuman olganda, Sharqiy Buxoroning XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlaridagi tarixiy rivoji Buxoro amirligining ichki boshqaruv tizimi,

¹³ П.Гаевский. Курган-Тюбинское бекство. ИРГО. 1919-1923 гг., Т. 55. Вып. 2. М.-Л. 1924.. – С.60.

¹⁴ Нечаев А.В. По Горной Бухаре. Путевые очерки. – СПб., 1914. - С.53; Логофет Д.Н. Бухарское ханство под русским протекторатом. Т.1. – С.248.

mustamlakachilik bosimi va mintaqaviy geosiyosiy jarayonlar kesishgan nuqtada kechgan bo‘lib, bu holat mazkur hudud tarixini alohida ilmiy tadqiqot obyekti sifatida o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Бендерский Н.А. Гиссарское бекство. – ТВ. 1905. № 42.
2. Варыгин М.А. Опыт описания Кулябского бекства. Известия РГО, Т. 52. вып. 10. 1916.
3. Гаевский П. Курган-Тюбинское бекство. ИРГО. 1919-1923 гг., Т. 55. Вып. 2. М.-Л. 1924.
4. Галкин А. Краткий очерк Бухарского ханства. Военный сборник, 1890, Т. 196, № 12.
5. Кап.Кузнесов. Дарваз. – Новый Маргелан. 1893.
6. Лилиенталь. Гиссарское и Кабадианское бекства в 1889 г. СМА, вып. 57. СПб., 1894.
7. Лилиенталь. Кухистан с северной частью Гиссарского хребта. – СГЦМА, 1886. вып. 26. -С. 9-21, 41-47.
8. Логофет Д.Н. На границах Средней Азии. Путевые очерки в 3-х книгах. Книга III. Бухарско-Афганская граница. – С.-Петербург., 1909. – С. 64.
9. Логофет Д.Н. Страна бесправия. Бухарское ханство и его современное состояние. С.-Петербург, 1909.
10. Логофет Д.Н. Бухарское ханство под русским протекторатом. Т. 1. – СПб., 1911.
11. Мазов С. Восточная Бухара, Бадахшан и Северный Афганистан. (По чужим и своим наблюдениям и заметкам). «Русское Дело». № 17-25. 1886. Т.С. Т. 404. -С. 1-80.
12. Рожевиц.Р.Ю. Поездка в Южную и Среднюю Бухару в 1906 г. – ИРГО, Т. 44. Вып. 5. 1908.
13. Семенов А. По границам Бухары и Афганистана. (Путевые очерки 1892 г.). Исторический вестник. 1902. № 3.-С. 961-992; № 4.
14. То‘raev Н. Вухоро тарихи. О‘quv qo‘llanma. – Вухоро. “Durdona”, 2020.
15. Яворский И.Б. Путешествие русского посольства по Афганистану и Бухарскому ханству в 1878-1879 гг., Т. 1. СПб., 1882.